



VIEWS OF THE UZBEKS OF THE FERGANA VALLEY RELATED TO THE CULT OF BLOOD

Shakhnoza Rakhimova

Independent Researcher, Urgench State University

sh.rakhimova@mail.ru

Urgench, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Fergana Valley, Uzbeks, blood cult, shamanism, Islam, ritual, custom, tradition, ancient culture, purification, fire, water, air, earth, bakhshi.

Received: 04.04.26

Accepted: 05.04.26

Published: 06.04.26

Abstract: The article analyzes the views of the Uzbeks of the Fergana Valley related to the symbolism of blood. The main focus is on archaic ideas concerning the genesis of this sacred symbol, the attitude of the Uzbek people toward the cult of blood, and the reflection of this symbol in family and religious rituals.

FARG'ONA VODIYISI O'ZBEKLARINING QON KULTI BILAN BOG'LIQ QARASHLARI

Shaxnoza Raximova

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Sh.rakhimova@mail.ru

Urganch, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, o'zbeklar, qon kulti, shomonlik, islom, marosim, urf-odat, an'ana, antik madaniyat, poklanish, olov, suv, havo, tuproq, baxshi.

Annotatsiya: Maqolada Farg'ona vodiysi o'zbeklarining qon ramzi bilan bog'liq qarashlari tahlil qilingan. Unda aosiyy e'tibor ushbu muqaddas ramzning genezisiga doir arxaik qarashlar, o'zbek xalqida qon kultiga bo'lgan munosabat, oilaviy va diniy marosimlarda mazkur timsolga oid tasavvurlarning aks etishiga qaratilgan.

ПРЕДСТАВЛЕНИЯ УЗБЕКОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ, СВЯЗАННЫЕ С КУЛЬТОМ КРОВИ

Шахноза Рахимова

Самостоятельный соискатель

Ургенчского государственного университета

sh.rakhimova@mail.ru

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ферганская долина, узбеки, культ крови, шаманизм, ислам, обряд, традиция, обычай, античная культура, очищение, огонь, вода, воздух, земля, бахши.

Аннотация: В статье анализируются представления узбеков Ферганской долины, связанные с символикой крови. Основное внимание уделяется архаическим воззрениям, связанным с генезисом данного сакрального символа, отношению узбекского народа к культу крови, а также отражению данного символа в семейных и религиозных обрядах.

Kirish. Insoniyat tarixida qon timsoli qadimdan muqaddas va ramziy ma'noga ega bo'lib kelgan. Turli xalqlar madaniyatida qon hayot manbai, nasl davomiyligi, poklanish, qurbonlik va ruhiy kuch ramzi sifatida talqin etilgan. Ayniqsa, ibtidoiy diniy e'tiqodlar, jumladan, shomonlik, animizm va totemizm tizimlarida qon muhim marosimiy unsur sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu qarashlar keyinchalik rivojlangan diniy tizimlar, xususan, islom dini bilan o'zaro ta'sirda bo'lib, ma'lum darajada transformatsiyaga uchragan holda xalq urf-odatlar va marosimlarida saqlanib qolgan.

Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyoning qadimiy sivilizatsiya o'choqlaridan biri sifatida o'ziga xos etnomadaniy qatlamlarga ega hudud hisoblanadi. Bu hududda shakllangan an'anaviy qarashlar tizimi turli tarixiy bosqichlarda yuzaga kelgan diniy e'tiqodlar, ijtimoiy munosabatlar va madaniy tajribalar sintezi natijasidir. Shu bois, vodiya aholisi, xususan, o'zbeklarning qon bilan bog'liq qarashlarini o'rganish nafaqat diniy-etnografik, balki ijtimoiy-madaniy jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv va madaniy transformatsiyalar sharoitida an'anaviy qarashlar tizimi asta-sekin o'zgarib bormoqda. Shu jarayonda qadimiy e'tiqodlarning zamonaviy talqinlarini aniqlash, ularning ijtimoiy ongdagi o'rni va funksiyalarini tahlil qilish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, qon timsolining oilaviy marosimlar, diniy amallar, davolash an'analari hamda baxshichilik faoliyatidagi aksini tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir.

Asosiy qism. Ma'lumki, jahonning ko'pgina etnoslari qadimdan o'ziga xos bo'lgan unsurlarni e'zozlab kelgan. Ushbu unsurlar jumlasiga yer, suv, olov, tuproq, havo va qon kabilar kiradi. Mazkur unsurlar orasida qon alohida o'ringa ega bo'lib, dunyoning aksariyat xalqlarida hayotiy kuch, nomoddiy negiz makoni sifatida tasvirlanadi. Antik madaniyatlarining og'ir bemorlar, tuqqan ayollar va yangi tug'ilgan chaqaloqlarning peshonasiga qon (yoki uning ramzi hisoblangan qizil bo'yoq) surtish kabi udumlari ana shu tasavvur bilan bog'langan [1. 168].

Qon bilan qarashlar va an'analar Yaqin Sharq mamlakatlarida yashovchi arab va yahudiylarda ham mavjud bo'lib, ularda qon gunohlarni yuvish vositasi va hayotning zarur elementi hamda ramzi hisoblanadi. Jumladan, arabla tasavvuriga ko'ra, qon hamma narsani tozalaydi va har qanday gunohni qon to'kmasdan avf etib bo'lmaydi [2. 168]. Shuning uchun arablarning deyarli barchasida xun olish odati qadimda keng tarqalgan edi. Faqatgina islom dini paydo bo'lganidan so'ng bunday odatlar asta-sekinlik barham topib borgan. Dunyodagi barcha etnoslar singari Farg'ona vodiysi o'zbeklarida qon kultiga doir o'ziga xos qarashlar shakllangan. Mazkur qarashlarning aksariyat qismi kundalik hayotda, aniqrog'i oilaviy marosimlarda o'zi aksini topgan. Jumladan, Farg'ona vodiysi o'zbeklarida qon muqaddas unsur hisoblanib, uni uvol qilish og'ir gunoh hisoblanadi. Masalan, vodiya qadimdan qon to'kilgan (biror jonzot so'yilgan) joyga axlat tashlash, uni ustiga siyish og'ir gunoh sanalib kelingan [3. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Uychi tumani Jiydakapa qishlog'i. 2023- yil].

Barcha diniy tasavvurlarda bo'lgani kabi shomonlikda o'ziga xos marosimlar tizimi mavjud bo'lib, ularning hiech biri marosimiy vositalarsiz o'tmaydi. Shomonlar o'zlarining ruhiy kuchlariga nisbatan ishonch-e'tiqodni yanada oshirish, maqsadga tezroq va qulayroq ravishda yetishish yoxud muayyan ta'sirni uzoqroq muddat saqlab turish maqsadida xilma-xil tashqi yordamchi vositalardan foydalanadilar. Farg'ona vodiysi shomon-baxshilarining marosim atributlari jumlasiga childirma, qamchi, tasbeh, yigiruv charxi, uyali aloqa vositasi, kul, suv, pichoq, oyna, turli xil iplar, inson sochi, tol novdasi kabilar kiradi. Nomlari qayd etilgan anjomlar vositasida vodiya shomon-baxshilari bemorlarni davolash ishlarini olib boradilar.

Shunisi xarakterliki, shomon doiralarining deyarli barchasida ichki qismlari turli xil tasvirlar bilan bezalgan bo'ladi. Ushbu rasmlarning tuzilishi qanday ma'no anglatishini hiech kim bilmaydi, ammo ularning barchasi bir xil «qirmizi qon» nomi bilan yuritilgan. Rasmni qon bilan bezash Sibir shomonlarida ham uchraydi [4. 224–227]. Shomon doirasi ichki qismidagi rasmlarni qon bilan bezash sababi aniq: doiraga chizilgan rasmlardagi qon belgisi ruhlarni o'ziga jalb etgan, lekin qanday ruhlarni o'ziga tortishi to'g'risida etnologiya fanida yagona fikr mavjud emas.

Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumani Qaqir qishlog‘ida yashovchi Maqsuda baxshining fikriga qaraganda, qon sehrli kuchga ega bo‘lib, ruhlarni doira atrofiga jalb qilishda asosiy o‘rinni egallaydi. Doiraga surtilgan qonni jinlar kelib yalaydi. Shundan so‘ng ular qonning egasini boshqa yovuz ruhlardan himoya qilib yuradi [5. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumani Qaqir qishlog‘i. 2024- yil]. Lekin, shuni e‘tirof etish kerakki, qonni doiraga surtish odati bevosita qadimgi animistik tasavvurlarning qoldig‘idan boshqa narsa emas.

Ruhtar to‘g‘risidagi asosiy tasavvurlar va doirani qonli suratlar bilan bezash, birinchi navbatda, ularning chiltonlar bilan bog‘liq ekanligini anglatadi. Andijon viloyati Shahrixon shahri Bo‘ston mahallasida yashovchi Gullola baxshi: «Doirani chiltonniki deb o‘ylaymiz»,– deb ta‘kidlaydi [6. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Shahrixon shahri. 2024- yil]. Andijon viloyati Paxtaobod shahrida yashovchi Fotima baxshi ham bu fikrni qo‘llab-quvvatlab, «Childirmadagi qon qirq chiltonga tegishli»,– deb e‘tirof etadi [7. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Paxtaobod shahri. 2024- yil]. Shomon marosimlarida doiraga qon surtish odati tog‘li tojiklarda ham mavjud bo‘lgan. O. Suxarevaning yozishicha, O‘ratepa tojiklari shomon marosimlari jarayonida doiraning o‘rta qismiga qon surtishib, ruhlarni chaqirganlar. Ular shu yo‘l bilan yovuz ruhlarni doiraga yig‘ib olar ekan [8. 35]. Shuni ta‘kidlash kerakki, barcha xalqlarda ham shomon doirasini qon bilan bezash odati mavjud bo‘lmagan. K. Zadixinaning qayd etishicha, qadimgi Xorazmning o‘rta qismida yashagan o‘zbek shomonlari doirasiga tasvir chizishda qondan foydalanilmagan. Chunki, qon Xorazmda qadimdan muqaddas unsur bo‘lib, uni uvol qilish og‘ir gunoh hisoblangan [9. 233].

Farg‘ona viloyati So‘x tumanidagi mashhur Chashma bulog‘ini ham mahalliy aholi bahor faslida hashar usuli bilan hamisha tozalab turgan. Shu jumladan, so‘xliklar bashariyatning boqiy bayrami – Navro‘z ayyomidan oldin Chashma bilan birga, undan dalalar va aholining xonadonlari sari tarqaladigan ariqlarni ham hashar usuli bilan yaxshilab tozalaydilar. Hashar boshlanishidan oldin Chashma bulog‘i piringning ruhini shod etish maqsadida ho‘kiz yoxud qo‘chqor qurbonlik qilish odati ham bo‘lgan. Ushbu marosim «darvishona» deb ataladi. So‘xlik olim O‘. So‘fievning yozishicha, qurbonlik qilingan jonivorning qoni ariqqa oqizib yuboriladi. Xalqona udumlarga binoan, suvga qo‘shilib, uni qizartirib oqqan qon Chashma piri ruhini shod aylab, mo‘l-hosil garovi bo‘lmish oqar suvning barakali bo‘lishi uchun madad berarmish. Aksincha, Chashma piringning ruhiga qurbonlik keltirilmasa, go‘yo uning ruhi g‘amgin, mahzun bo‘lib, suv ozayib ketishi, va hattoki norozilik, xafagarchilik ifodasi sifatida mutlaqo oqmay qolishi ham mumkin ekan [10. 118].

Sovuq suvning tanaga va qonga tezroq so‘rilishi natijasida insonning mizoji va uning tanasidagi to‘rt unsur shu orqali me‘yorlashishi hakimlar tomonidan ham qayd etilgan. Suv inson

uchun tiriklik manbai ekanligining yana bir ifodasi sifatida o'zini yo'qotgan yoki hushdan ketgan kishini o'ziga keltirish uchun sovuq suv sepish odatini keltirish mumkin. Bu kabi holatlar inson uchun suv qayta tiklanish yoki asl holatiga, o'ziga qaytish «dorisi» sifatida ham qadrlanishi, xususan, o'zbeklar ongida suv inson tug'ilishi bilanoq uning sog'lig'ini qayta tiklovchi, nafaqat empirik, balki ruhiy tushkun holatlarni hamda xastaliklarni yengib o'tish, davolashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan unsur deb anglanishidan dalolat beradi.

Qon kuli bilan bog'liq qarashlar o'zbek xalq folklorida uchraydi. Masalan, xalq orasida "Qonni qon bilan emas, suv bilan yuvadilar" degan purma'no o'gitning ham mavjudligi mazkur timsolning naqadar keng tarqalganligini anglatadi.

Farg'ona vodiysi o'zbeklarining qon kulti bilan bog'liq qarashlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, qon timsoli qadimiy diniy e'tiqodlar tizimida markaziy va ko'p qirrali ma'noga ega bo'lgan. U ibtidoiy tasavvurlarda hayot manbai, ruhiy kuch va muqaddaslik belgisi sifatida talqin etilib, shomonlik e'tiqodlari orqali marosimiy-amaliy ko'rinish kasb etgan. Keyingi tarixiy bosqichlarda, ayniqsa islom dini kirib kelishi bilan, mazkur qarashlar transformatsiyaga uchrab, diniy-huquqiy me'yorlar bilan uyg'unlashgan holda davom etgan.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, qon timsoli Farg'ona vodiysi aholisi ijtimoiy-madaniy hayotida nafaqat diniy, balki ijtimoiy va axloqiy funksiyalarni ham bajargan. U qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash, nasl-nasabni ifodalash, jamiyatda adolat va javobgarlik me'yorlarini shakllantirishda muhim ramz sifatida namoyon bo'lgan. Shu bilan birga, oilaviy va marosimiy amaliyotlarda qonning poklanish, himoya va davolash bilan bog'liq funksiyalari saqlanib qolgan.

Zamonaviy sharoitda esa ushbu qarashlar sezilarli darajada o'zgarishga uchramoqda. Ilmiy tafakkur, tibbiyot taraqqiyoti va globallashtirish jarayonlari natijasida qon bilan bog'liq arxaik tasavvurlar qisqarib borayotgan bo'lsa-da, ularning ayrim elementlari madaniy meros va an'anaviy identiklikning muhim tarkibiy qismi sifatida saqlanib qolmoqda. Bu esa qon kultining to'liq yo'qolmay, balki yangi ijtimoiy-madaniy sharoitlarda qayta talqin qilinayotganini ko'rsatadi.

Xulosa. Shunday qilib, Farg'ona vodiysi o'zbeklarining qon kulti bilan bog'liq qarashlari tarixiy qatlamlarning murakkab sintezi sifatida namoyon bo'lib, unda qadimiy e'tiqodlar, diniy an'analar va zamonaviy ijtimoiy jarayonlar o'zaro uyg'unlashgan. Mazkur masalani chuqur o'rganish o'zbek xalqining etnomadaniy xususiyatlari, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy ong evolyutsiyasini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, Farg'ona vodiysi o'zbeklarida qon ramzi bilan qarashlar hozirgi kunga qadar saqlanib kelmoqda. Faqatgina islom dini va zamonaviy globallashtirish

jarayonlar ta'siri natijasida qon bilan tasavvurlar yangicha ko'rinish kasb etmoqda. Ushbu o'zgarishlar qadimgi diniy tasavvurlarning asl mohiyati yo'qolib borayotganligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 168.
2. Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 168.
3. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Uychi tumani Jiyyakapa qishlog'i. 2023- yil.
4. Иванов С. В. Некоторые аспекты изучения сибирских бубнов / Из истории Сибири. – Томск: Наука, 1976. – С. 224–227.
5. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Uchko'prik tumani Qaqir qishlog'i. 2024- yil.
6. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Shahrixon shahri. 2024- yil.
7. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Paxtaobod shahri. 2024- yil.
8. Сухарева О. А. Пережитки демонологии и шаманства у равнинных таджиков / Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – М.: Наука, 1975. – С. 35.
9. Задыхина К. Узбеки дельты Аму Дарьи // ТХАЭЭ. – М.: Наука, 1952. Т.1. – С. 233.
10. Сўфиев Ў. М. Сўх тожикларининг сув култи билан боғлиқ урф-одатлари / Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда. – Фарғона, 2014. – Б. 118.